(9). Hatim B., Mason I. (1990). Discourse and the Translator. London, Longman. 258 p.
(10). Toury G. (1995). Descriptive Translation Studies and Beyond. Amsterdam, Benjamins, 311 p.
(11). Vinay J.P., Darbelnet J. (1958/1995). Comparative Stylistics of French and English. Amsterdam: Benjamins. 360 p.
(12). Chesterman A. (1997). Memes of Translation. Amsterdam, Benjamins. 219 p.

Abdullayeva Mohinur (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Magistratura bo‘limi Qiyosiy tilshunoslik lingvistik tarjimashunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti; E-mail: abdullayevamohinur774@gmail.com)

MADANIY REALIYALARNI TARJIMA QILISH: XORAZM MADANIYATIGA OID SO‘ZLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm madaniyatiga xos leksikaning – an’anaviy turmush tarzi, urf-odat va marosimlar bilan bog‘liq so‘z va iboralarni ingliz tiliga tarjima qilish muammolari tadqiq etiladi. Mazkur leksik birliklarni o‘girishda tarjimonlar duch keladigan lingvistik va madaniy-pragmatik qiyinchiliklar tahlil qilinib, bu murakkablikning asosiy sababi ikki til orasidagi madaniy ekvivalentlik muammosida ekanligi asoslanadi. Maqolada xalqning milliy o‘ziga xosligi va dunyoqarashi bevosita uning tilida mujassamlashgani uchun bunday so‘zlarni boshqa tilga tarjima qilishda to‘liq ma’noviy tenglikka erishish qiyinligi ko‘rsatilgan, shu asosda tarjima tarjimonlik, madaniyatshunoslik va xalqshunoslik kesishmasida turuvchi murakkab jarayon sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatga xos so‘zlar, realiya, ekvivalent, milliy kolorit, tarjima strategiyalari, lingvomadaniy to‘siq, milliy o‘zlik.*

Абдуллаева Мохинур (Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, магистрант 2 курса по специальности: Сравнительное языкознание (лингвистическое переводоведение), Email: abdullayevamohinur774@gmail.com)

ПЕРЕВОД КУЛЬТУРНЫХ РЕАЛИЙ: СЛОВА, ОТНОСЯЩИЕСЯ К ХОРЕЗМСКОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация. *В данной статье исследуются проблемы перевода на английский язык лексики, характерной для хорезмской культуры – слов и выражений, связанных с традиционным образом жизни, обычаями и обрядами. Анализируются лингвистические и культурно-прагматические трудности, с которыми сталкиваются переводчики при передаче этих лексических единиц, и обосновывается, что основной причиной данных сложностей является проблема культурной эквивалентности между двумя языками. В статье показано, что, поскольку национальная самобытность и мировоззрение народа непосредственно отражаются в его языке, достижение полной семантической эквивалентности при переводе таких слов на другой язык является затруднительным; на этой основе перевод интерпретируется как сложный процесс, находящийся на пересечении переводоведения, культурологии и этнологии.*

Ключевые слова: *слова, характерные для культуры, реалии, эквивалент, национальный колорит, стратегии перевода, лингвокультурный барьер, национальная идентичность.*

Abdullayeva Mohinur (Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni Master’s Department. Specialty: Comparative Linguistics (Linguistic Translation Studies). 2nd-year Master’s student; E-mail: abdullayevamohinur774@gmail.com)

TRANSLATION OF CULTURAL REALIA: WORDS RELATED TO KHOREZM CULTURE

Annotation. *This article examines the problems of translating into English the lexicon specific to Khorezm culture – words and expressions related to traditional lifestyle, customs, and rituals. The study analyzes the linguistic and cultural-pragmatic difficulties that translators face when rendering these lexical units and argues that the main cause of these complexities lies in the issue of cultural equivalence between the two languages. The article demonstrates that since a nation’s identity and worldview are directly embodied in its language, achieving full semantic equivalence when translating such words into another language is difficult. Based on this, translation is interpreted as a complex process situated at the intersection of translation studies, cultural studies, and ethnology.*

Keywords: *culture-specific words, realia, equivalence, national coloring, translation strategies, linguocultural barrier, national identity.*

Kirish. Til – bu shunchaki so‘zlar va jumlalar majmuyi emas. U har bir millatning o‘ziga xos ruhiy olami, tarixi va ma’naviy boyligining tirik ko‘zgusidir. Insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlashdan tashqari, til avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlarni, urf-odatlarni, an’analarni va hayot tarzini o‘zida

mujassam etadi. Har bir so‘z, har bir ibora, har bir maqol – mindagi xalqning dunyoqarashini, orzu-umidlarini va turmush falsafasini aks ettiradi.

Til millatning o‘zligini saqlashda eng mustahkam poydevordir. Chunki xalqning tarixi kitoblarda emas, avvalo, o‘z tilida yashaydi. Ona tilida aytilgan alla, ona tilida yozilgan she’r, ona tilida yuritilgan an’anaviy marosimlar bularning barchasi millatning qalbini tashkil etuvchi unsurlardadir. Til orqali ota-bobolarimizning donishmandligi, hayotiy tajribasi va ma’naviy merosi bizgacha yetib keladi hamda bizdan keyingi avlodlarga uzatiladi.

Shu bois til yo‘qolishi oddiy bir aloqa vositasining barham topishi emas, bu butun bir xalqning ma’naviy olamining, o‘ziga xos dunyoqarashining va munosib o‘rnini hech narsa bosa olmaydi millatlararo farqning yo‘q bo‘lib ketishidir. Til bilan birga o‘sha xalqning milliy xotirasi, o‘ziga xos tafakkur tarzi va asrlar davomida shakllanib kelgan betakror madaniy merosi ham unutilish qa’riga cho‘madi. Demak, tilni asrash, bu faqat so‘zlarni saqlab qolish emas, balki millatning o‘zini, uning ruhini va kelajagini asrashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarjima jarayonida madaniyatga xos leksik birliklar, xususan, realiyalar, milliy urf-odatlar, an’anaviy taomlar, milliy kiyim-kechaklar, diniy va tarixiy tushunchalar– tarjimondan alohida mas’uliyat va chuqur bilim talab etadigan unsurlar sifatida ajralib turadi. Bunday so‘zlar va iboralar aksariyat hollarda boshqa tilda o‘ziga to‘la mos keladigan muqobilga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun ham tarjimon ularning nafaqat luo‘aviy ma’nosini, balki kontekstdagi vazifasini, madaniy yukini va milliy rangini ham to‘o‘ri anglab, o‘quvchiga yoki tinglovchiga lo‘nda va tushunarli tarzda yetkazishi zarur. Aks holda, asl matnning o‘ziga xos ruhi so‘nadi, milliy kolorit o‘chadi va ma’naviy mazmun o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

Ushbu maqolada madaniyatga oid leksik birliklarning tarjima amaliyotidagi o‘rni atroflicha ko‘rib chiqiladi. Tarjima jarayonida tarjimon duch keladigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladigan strategiyalar va usullar yoritiladi. Bundan tashqari, aniq va haqiqiy misollar asosida madaniy birliklarning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tarjimalari qiyoslanadi hamda tarjimonlar uchun amaliy ko‘rsatmalar taqdim etiladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir til o‘ziga xos madaniyat, tarix va mentalitetni aks ettiradi. Shu boisdan ham tarjimon faqat so‘zlarni emas, balki, ular ortidagi madaniy mazmun-mohiyatni ham to‘laqonli ravishda anglay olishi, tushunishi, tinglovchi va so‘zlovchi ko‘prik vazifasini bajarishi kerak. Ayniqsa, ikki xil madaniyat vakillari o‘rtasidagi aloqa jarayonida madaniy tafovutlar, turlicha qarashlar kelib chiqishi tabiiy hol, albatta. Tarjimani bir so‘z bilan aytganda transformatsiya jarayoni deya olish mumkin

1.Realiya (lotincha "realis" – haqiqiy) deganda, asosan, biror xalqning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, urf-odatlari, davlat qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan, boshqa tillarda bevosita ekvivalentga ega bo‘lmagan milliy xoslikni ifodalovchi moddiy yoki nomoddiy hodisalar, narsalar tushuniladi; ular tarjimada qiyinchilik tug‘diradi va tilshunoslikda madaniyatlar o‘rtasidagi aloqani o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi [2].

Tahlil va natijalar. Quyida bir necha xorazmcha madaniy realiyalar ingliz tiliga qanday tarjima qilingani haqida ma’lumot beriladi.

Yashmak – Veil. Musulmon ayollar yuzini to‘sib turish uchun ishlatiladigan parda. Bu so‘zni tarjima qilishda ekvivalentlik usulidan foydalanilgan, chunki shu tilda aynan shu narsani vazifasini bosuvchi obyekt mavjud [3].

Ayvan – Open veranda. Xorazmning an’anaviy uylari arxitekturasida keng qo‘llaniladigan ochiq yoki yarim ochiq tokchasimon joy [4].

Kad/Kadchuda–Fortified family estate. "Kad" qadimiy Xorazmda keng tarqalgan mustahkamlangan oilaviy mulk yoki qo‘ro‘on. "Kadxuda" esa shu mulkning boshlio‘i, ya’ni oila kattasi yoki mahalla oqsoqoli degani [5].

Quda danishma – Meeting the in-laws. To‘ydan keyin kelin va kuyov oilalarining rasmiy birinchi uchrashuvini bildiradi. "Quda" – kuyov yoki kelin tomoni oilasi, "danishma" esa bir-birlari bilan tanishish ma’nosini anglatadi [6].

Yuqoridagi so‘zlarning barchasida transliteratsiya usuli berilgan va o‘quvchiga yanada ma’lum bo‘lishi uchun qavs ichida yoki yonida izoh berilgan. Bundan tashqari, yozuvchi shu so‘zlarning ekvivalentini berishga ham harakat qilgan. Garchi ekvivalent topsa ham milliy madaniyatni saqlab qolish uchun so‘zning o‘zini ham bergan.

Takhya – Traditional skullcap. Milliy kashtado‘zlik bilan bezatilgan bosh kiyimi. Xorazmning to‘qimachilik va kashtachilik san’atining namoyandasidir. Erkaklar va ayollar tomonidan kiyiladi [7].

O‘o‘ri patir (Thief patir) – Rasmiy emas, maxfiy tarzda o‘tkaziladigan unashtiruv marosimi. "O‘o‘-ri" (o‘o‘ri/yashirin) so‘zi bu tadbirning norasmiy va sir saqlanadigan tabiatini ko‘rsatadi. Patir an’anaviy non turi bo‘lib, u to‘y va marosim dasturxonining timsolidir.

Patia toi – O‘o‘ri patirdan farqli o‘laroq, bu rasmiy va ochiq nishonlanadigan unashtiruv to‘yidir. Ikkala oila ham jamoatchilik oldida birlashadi, sovg‘alar almashiniladi.

Halpa – Xorazmda an’anaviy bayramlarda qo‘shiq aytib, o‘yin-kulgi ko‘rsatadigan xalq artisti (ko‘-pincha, ayol). Xorazmda boshqa hududlardan farqli ravishda, ayol ijrochilar an’anasi kuchli rivojlangan.

Bu so‘zlarda esa transliteratsiya va izohli tarjimadan foydalanilgan. Chunki ularning ekvivalenti yo‘q [6].

Dalan – Secret corridor. Xorazm an’anaviy binolarida "dalon" – ichki va tashqi makon o‘rtasidagi yopiq o‘tish yo‘lagi, ko‘pincha, maxfiy yoki himoyalovchi yo‘lak sifatida qurilgan. Arxitekturaviy jihatdan mahramsizlikni ta’minlash maqsadida loyihalangan [8.]

Bu so‘zda esa ozgina xatolik bor, chunki Xorazmda “dalan” so‘zi uyga kiraverishdagi katta joyni bildiradi. Zamonaviy tilda “hall” deb atalyapti. Demak, biz bu so‘zning ekvivalenti sifatida “hall” so‘zini olishimiz mumkin ekan.

Xulosa va takliflar. Madaniyatga oid so‘zlarni to‘g‘ri va aniq tarjima qilish masalasi nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki milliy o‘zlikni saqlash jihatidan ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, bunday so‘zlar oddiy lug‘aviy birliklar bo‘lib qolmay, balki bir xalqning ruhini, dunyoqarashini va tarixi davomida shakllangan qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Xorazm madaniyati o‘zining boy va serqirra tabiati bilan ajralib turadi. Bu o‘lkaning tili va madaniyati shunchalik o‘ziga xos xususiyatlarga egaki, undagi ko‘plab so‘zlar va iboralar boshqa tillar doirasida mutlaqo yangicha bir olam sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu o‘ziga xoslik tufayli Xorazm madaniyatiga mansub so‘zlar uchun boshqa tillarda to‘liq va mukammal muqobil ekvivalent toppish, ko‘pincha, juda mushkul, hatto ba’zi hollarda, deyarli imkonsiz vazifaga aylanib qoladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, har qanday tarixiy yoki madaniy so‘zni tarjima qilishga kirishar ekan, tarjimon, avvalo, o‘sha so‘zning berilgan kontekstda qanday ma’no kasb etayotganini chuqur anglab olishi zarur. Bundan tashqari, u nafaqat so‘zning yuzaki ma’nosini, balki uning barcha qatlamlarini, nozik ma’no ottenkalarini va kontekstdagi vazifasini to‘liq bilgan holda ish yuritishi lozim. Zero, tarjimonning asosiy maqsadi o‘quvchi xayolida asl matnda muallif ko‘zda tutgan tasvirni, his-tuyo‘uni va ruhiy olamni jonli va aniq tarzda gavdalantira olishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кувватова М., Хамрокулова М., Ходжаева S. Madaniyatga oid so‘zlar tarjimasi. Interpretation and Researches, извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/99475, 2025, p. (9(55-2).

(2). https://uz.wikipedia.org/wiki/Realiya_(tarjima)

(3). Ibragimov Ibragim Akhmedovich. The history of ancient Khorezm crafts, journal of international scientific research, Volume 1, Issue 5, October, 2024, p. 296–300.

(4). Matyakubova Shahodat Khamidjanovna. Early medieval Khorezm: socio-economic development and the evolution of urban life, 2025, p. 491.

(5). Matyakubova Shahodat Khamidjanovna. Early medieval Khorezm: socio-economic relations and urbanizations processes. Journal of multidisciplinary science and innovations, 2025, p. 490.

(6). Rano Turaeva. The cultural baggage of Khorezmian identity: traditional forms of singing and dancing in Khorezm and in Tashkent, Central Asian Survey, 2008, p. 143–153.

(7). Usmanova Gulasal Normukhammad Kizi. Establishment of Khorazm dance school. Journal of Modern Educational Achievements, 2023, p. 11.

(8). Javad Shekari Niri. Review of the City of Khiva. Manifestation of Iranian Culture and Civilization in the Region of Khwarezm. Space Ontology International Journal, 2017, p. 41.

Nashirova Dilnoza Burievna (Qarshi davlat Texnika universiteti)

TARJIMA JARAYONIDA YO‘NALMA HARAKAT FE’LLARINING FRAZEOLOGIK EKVIVALENTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining frazeologik ekvivalentlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda go, come, take, bring kabi ingliz fe’llarining o‘zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan semantik va madaniy transformatsiyalar, ularning frazeologik muqobillari misollar asosida yoritilgan. Maqolada tarjima nazariyasining ekvivalentlik, transformatsiya va pragmatik adaptatsiya tamoyillari asosida tahlillar keltirilgan.*